

**YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYANI QABUL QILISH ZARURATI.
YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYADAGI O'ZGARISHLARDAN
XABARDORMISIZ? (Umumiy obzor maqola)**

Zokirova Bahor Bekmuhammad qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti 1- bosqich talabasi

Mail ID: zokirovabahor@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi mazmun-mohiyati va undagi asosiy o'zgarishlar yoritiladi. Konstitutsiyaviy yangilanishlarning asosiy maqsadi inson huquqlari va erkinliklarini kengaytirish, davlat boshqaruvini takomillashtirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash hamda fuqarolarning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishga qatarilganligi tahlil qilinadi. Maqolada yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishiga ta'siri hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi haqida fikr yuritiladi. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, bu maqolada asosiy o'zgartirishlar kiritilgan shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar va ularning kafolatlari haqida ma'lumot beriladi. Siz bu maqolani o'qish orqali kundalik hayotda ishlataidan va bazida buzilishi mumkin bo'lgan huquqlaringizni himoya qilishni ham o'rganib olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: yangi tahrirdagi Konstitutsiya, inson huquqlari, demokratiya, huquqiy davlat, islohotlar, ijtimoiy himoya, ta'lif, konstitutsiya o'zgarishlari, ijtimoiy davlat.

Abstract: This article describes the essence of the new Constitution of the Republic of Uzbekistan adopted in 2023 and the main changes in it. It is analyzed that the main goal of the constitutional reforms is to expand human rights and freedoms, improve public administration, ensure social justice, and prioritize the interests of citizens. The article discusses the influence of the new version of the Constitution on socio-economic and political development, as well as its compliance with international standards. The relevance of this article is that this article provides information about personal, socio-economic rights and their guarantees, which have undergone major changes. By reading this article, you can also learn how to protect your rights, which you use in your daily life and which can sometimes be violated.

Key words: new version of the Constitution, human rights, democracy, rule of law, reforms, social protection, education, constitutional changes, welfare state.

Аннотация: В данной статье описана суть новой Конституции Республики Узбекистан, принятой в 2023 году, и основные изменения в ней. Анализируется, что основной целью конституционных реформ является расширение прав и свобод человека, совершенствование государственного управления, обеспечение социальной справедливости, приоритет интересов граждан. В статье рассматривается влияние новой редакции Конституции на социально-экономическое и политическое развитие, а также ее соответствие международным стандартам. Актуальность данной статьи заключается в том, что в личных, В данной статье представлены сведения

социальноэкономических правах и их гарантиях, которые претерпели серьезные изменения. Прочитав эту статью, вы также сможете узнать, как защитить свои права, которыми вы пользуетесь в повседневной жизни и которые иногда могут нарушаться.

Ключевые слова: новая редакция Конституции, права человека, демократия, верховенство закона, реформы, социальная защита, образование, конституционные изменения, государство всеобщего благосостояния.

KIRISH

O'zbekistonning yangi davrda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlarga bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda. 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konsitutsiyani ushbu ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan muhim qadam sifatida qabul qilishimiz mumkin. Chunki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat huquqiy asoslarini belgilovchi bosh hujjat sifatida xalqning erkinligi,adolat va farovonlik sari intilishlari aks ettiradi. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrir islohotlarning navbatdagi bosqichi sifatida mamlakat huquqiy va ijtimoiy taraqqiyotning mustahkam poydevoraini yaratdi. Yangi Konstitutsiya nafaqat huquqiy islohotlarning natijasi, balki jamiyatdagi demokratik qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan universal qoidalarni o'z ichiga oladi. Ushbu o'zgarishlar ayniqsa, inson huquqlari va davlat boshqaruvi masalalarida muhim burilish hisoblanadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning yana bir dolzarbli shundaki, u barcha sohalarda xalqaro standartlarga moslashtirilgan. Bundan "Konstitutsiyaga kiritilgan har bir o'zgarishlar zaminida xalq farovonligini yaxshilash, ularning huquqlarini himoya qilish chora-tadbirlari mavjudligini ko'rishimiz mumkin"[1: 260].

KONSTITUTSIYA-BOSH QOMUSIMIZ

Konstitutsiya bu davlatning asosiy qonuni bo'lib, mamlakatimiz mustaqilligini asoslab beradi. Har bir mamlakat konstitutsiyasi xalqning erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish, davlat boshqaruvining asosiy tamoyillarini belgilash uchun muhim hujjat sifatida qabul qilinadi. "O'zbekiston mustaqillikka erishgach, islohotlarning ilk davri O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan boshlandi, inson erki, ozodligi mamlakat ixtiyoriga o'tdi" [2: 79]. Milliy qomusimiz- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingach, qator yillar davomida, jumladan, 2002-yil 27-yanvarda bo'lib o'tgan referendum natijalariga ko'ra unga turli o'zgartirishlar kiritilgan. Shuningdek, 2003-yil 24-aprelda XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga ko'plab tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan. 2007-yil 11-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonuniga muvofiq 89, 93, 102-moddalarga o'zgartirishlar kiritilgan. 2017-yil 6-aprelda esa 80, 81, 83, 93, 107, 110, 111-moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

Faxr va g'urur bilan aytish lozimki, yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlar bevosita qonun ustuvorligi tamoyillariga asoslangan. "Qonun xalq hokimiyatini amalga oshirish, jamiyatni boshqarish, davlat va fuqarolar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasi ekan, huquqiy davlarning quroli ham, himoyachisi ham, qalqoni hamdir" [2:

80]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Konstitutsiya- bu hayotimizning har bir jabhasini qamrab oladigan muqaddas hujjatdir. U zamon o'zgarishlariga mos holda takomillashib, xalqimizning manfaatlarini yanada samarali himoya qilishga qaratilgan bo'lishi kerak".

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYANI QABUL QILISH ZARURATI

Hozirda "dunyo konstitutsiyaviy xaritasi"da 500 dan ortiq faol Konstitutsiya mavjud bo'lib, ulardan 200 ga yaqini mustaqil davlatlarning konstitutsiyalari va 300 dan ortig'i federatsiyalar subyektlari konstitutsiyalari hisoblanadi. Oxirgi 30 yil ichida 100 dan ortiq mamlakatlarda konstitutsiyaviy islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirildi, 57 tasida yangi konstitutsiya qabul qilindi. Meksika, Brazilya, Shveysariya, Avstriya, Chili, Hindiston va Gruziya konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish bo'yicha yetakchi o'rinnarni egallaydi.

"Butun dunyoda globallashuvning zamonaviy sharoitida konstitutsiyaviy rivojlanishning o'ziga xos modellarini izlash jadal olib borilmoqda. Shu bilan birga, konstitutsiya davlatning siyosiy va ijtimoiy barqarorligini taminlovchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham Yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilishni muhim omillardan deb topdi va unga 2023-yil 30-aprelda bo'lib o'tgan referendum natijalariga ko'ra muhim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ushbu yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilinishiga zarurat sifatida quyidagilarni olishimiz mumkin:

- zamonaviy rivojlanish talablari, ya'ni O'zbekistonning global dunyodagi o'rnini mustahkamlash va ichki islohotlar jarayonida Konstitutsiyaning moslashuvchanligi muhim ahamyat kasb etdi. Konstitutsiyani xalqaro standartlarga moslashtirish eng muhim sabablardan biri bo'ldi, chunki inson huquqlari, demokratik boshqaruv va ijtimoiyadolat sohasida xalqaro standartlarga moslashish barcha shaxslar uchun zarur edi va u O'zbekistonning xalqaro maydondag'i rolini mustahkamlashga yordam berardi. Shuningdek, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun zamonaviy qonunchilik tizimini shakillantirish zarur edi;

- inson huquqlarini kengaytirish. Yangi tahrirdagi konstitutsiya inson huquqlariga oid yangi normalar bilan boyitildi. Bu esa xalqning ijtimoiy va siyosiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Bu orqali davlat aholining ehtiyojmand toifalariga turli xil imtiyozlar va imkoniyatlar berishni maqsad qilgan. Erkinlik va tenglikni taminlash ham muhim zaruratlardan biri hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, barcha shaxslar erkindirlar va yuqorida aytib o'tilgan imtiyozlar hamadolat prinsipiغا muvofiq bo'lishi zarur;

- davlat boshqaruvini takomillashtirish, hokimiyatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash yani prezident, parlament va ijro hokimiyati o'rtasidagi vakolatlarni aniq taqsimlab olish ham zarur edi. Shuningdek, mahalliy hokimiyatlar mustaqilligini oshirish va ularning aholi manfaatlariga ko'proq e'tibor qaratishini ta'minlash maqsad qilingan;

- demokratik tamoyillarni mustahkamlash, saylov tizimida shaffoflikni oshirish, saylovlarini ochiq vaadolatni o'tkazishga doir yangi islohotlarni o'tkazish ham muhim edi. Shuningdek fuqarolarni davlat boshqaruvida ishtirokini oshirish ham muhim sabablardan

biri hisoblanadi" [3: 61-64]. Shu kabi yuksak maqsadlarni amalga oshirish uchun yangi Konstitutsiya zarur edi.

KONSTITUTSIYADAGI ASOSIY O'ZGARISHLAR

2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladigan muhim o'zgarishlarni o'z ichiga oldi. Ushbu yangiliklar inson huquqlarini kengaytirish, davlat boshqaruvini takomillashtirish va zamonaviy talablarga mos ravishda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashni ko'zda tutadi. Endi bu o'zgarishlarning asosiy yo'naliшlariga to'xtalamiz.

Konstitutsiyamizga muhim o'zgarishlar kiritilganligi 1-moddadayoq ko'zga ko'rindi. Davlat suverineteti bobida, 1-moddada "O'zbekiston boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lган suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" deb belgilangan. Ushbu moddadagi huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat degan tushunchalar aynan 2023-yil 30-apreldagi referendumda kiritilgan bo'lib, ular O'zbekistonning davlat mustaqilligi, xalqaro maydondagi rolini belgilaydi. Bu tushunchalarga birma-bir to'xtalib o'tsak, huquqiy davlat bu qonun ustuvorligi, sud mustaqilligi ta'minlanadigan, fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlanadigan davlatdir. Huquqiy davlatning quyidagi belgilari mavjud: qonun ustuvorligi, sud mustaqilligi, fuqarolarning teng huquqliligi, davlat va fuqarolarning o'zaro mas'ulligi va boshqalar. O'zbekistonda shu belgilar mavjudligi sababli va bularni yanada rivojlantirish maqsadida u huquqiy davlat deb nomlab qo'yildi.

Ijtimoiy davlat bu fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta'minlaydigan, teng imkoniyatlar yaratadigan davlatdir. Biz bugungi kunda yurtimizda kambag'allikni qisqartirish, nogironligi bo'lган shaxslarni qo'llab quvvatlash, nafaqalar, ta'lim, sog'liqni saqlashni kafolatlash uchun choralar ko'rilyotganligi buning dalilidir. Dunyoviy davlat deb nomlanishiga sabab esa davlat boshqaruvi va din bir-biridan ajratilganligi, hech qaysi diniy qarash majburiy emasligi va barcha dinlarga birdek hurmat ruhida qaralyotganligi hisoblanadi.

Shuningdek yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlari kengaytirildi va ularni ekologik huquqlari qo'shildi. Konstitutsianing shaxsiy huquqlar bobida 25-moddada O'zbekistonda o'lim jazosi taqilanganligi belgilandi. Shundan ko'rishimiz mumkinki, insonning shaxsi, uning hayoti oliy qadriyat hisoblanadi va hech kim uni cheklashga haqli emas. Bu qo'shimcha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdaggi o'lim jazosini taqilash bo'yicha farmonini asoslab berdi. Shaxsiy huquqlar bobidagi yana bir muhim qo'shimchalardan biri bu- 28-moddadaning 3-qismi "...Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtida sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin" va 7-qismi "... Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emas" hisoblanadi. Ushbu moddada jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkinligi belgilangan, ya'ni shaxs o'zini aybsizligini isbotlashi shart emas, balki agar uning aybi aniq dalillar bilan isbotlanmasa, u aybsiz hisoblanishi keltirilgan. Moddaning 7-qismiga yuzlanadigan bo'lsak, har kim o'z aybi

uchun faqatgina o'zi javob beradi degan fikr kelib chiqadi. Kimnidur qilgan jinoyati uchun boshqalar ham ayrim huquqlardan cheklanishiga yo'l qo'yilmaydi.

29-modda 2-qismida "Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan va bu ham shaxslarning huquqlari kafolotlarini kengayganligini ko'rsatadi.

33-moddaning 3-qismi "Davlat internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoit yaradi" qismi esa davlatimizning xalqaro talablarga mosligi, fuqarolarni zamonaviy sharoitlarga moslashganligining isboti hisoblanadi.

Konstitutsiyadagi muhim o'zgarishlarni biz "Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar" bobida ham ko'rishimiz mumkin. 41-moddada "Bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisob varaqalarining sir tutilishi, shuningdek meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi" deyilgan. Bu modda hozirgi kun bilan chambarchas bog'liq chunki hozirda bu kabi ma'lumotlar juda muhim va ularni o'g'irlash uchun jinoyatlar sodir etilyotganligi sir emas. Davlat bu modda orqali shaxslarning ushbu huquqlarini kafolatlashni o'z zimmasiga olgan.

42-modda 3-qismi "Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularni ish haqqini kamaytirish taqiqplanadi", 44-modda 2-qismi "Bolalar mehnatining bolaning xavfsizligiga, sog'lig'iga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqilik qiluvchi har qanday shakllari taqiqplanadi" kabi qismlari ham inson huquqlari himoyasiga bag'ishlangan.

47-moddada "Har kim uy-joyli bo'lish huquqiga ega. Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas. Uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyining qiymati hamda u ko'rgan zararning o'rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta'minlanadi." Bugungi kunda uy-joyni olib qo'yish yoki olib qo'yilgan uy-joy uchun pul to'lamaslik holatlari ko'p uchramoqda, mazkur modda shu kabi holatlarni oldini olish uchun ishlab chiqilgan. Ushbu moddada faqatgina uy-joyga teng miqdorda emas balki, ko'rilgan zararning ham miqdori to'lab berishi belgilangan va bu fuqarolarning uy-joyga bo'lgan huquqlarini mustahkamlab qo'ydi.

Yana bir yangi moddalardan biri bu oliy ta'lim to'g'risidagi modda bo'lib, u 51-moddada quyidagicha keltiriladi "Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli. Oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega". Bu modda oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatida o'sishga olib keladi va har tomonlama rivojlanishga imkon beradi. Bugungi kunda e'tiborni avvalo yoshlarni ta'lim-tarbiyasiga qaratish zarur, chunki yoshlar bizning kelajagimiz. Va ushbu modda aynan shu maqsadda qabul qilingan.

57-modda eng muhim modda hisoblanadi va unga ham o'zgartirishlar kiritilgan. 57-modda davlatimizni ijtimoiy davlat ekanligining isboti hisoblanadi. Chunki ushbu moddada aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toyifalari, nogironligi bo'lgan shaxslar va yolg'iz qariyalarning huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishi va ularga davlat va jamiyat hayotida ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlar yaratilishi keltirib o'tilgan. Bu modda insonparvarlik prinspining ham yorqin ifodasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

MUHOKAMA

Yuqorida keltirilgan moddalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishning muhimlik darajasi yuqori hisoblanadi. Buni misollar bilan ko'radigan bo'lsak, jamiyatimizdagi ro'y berayotgan voqealar bu kabi o'zgarishlarga zarurat yaratdi.

Misol uchun, turli xil tashkilotlar tomonidan oddiy aholining uy-joylari so'ralmasdan tortib olinyotganligi hozirgi kunda juda ko'p uchramoqda va bu fuqarolarning noroziligiga sabab bo'lmoqda. Bunda fuqarolarning ham shaxsiy ham iqtisodiy-ijtimoiy huquqlari buzilmoqda. Davlatimiz aynan shu kabi holatlarni oldini olish uchun 47-moddani ishlab chiqdi va Konstitutsiyamizga kiritdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya fuqarolarning kundalik hayotiga ham yaxshi taraflama ta'sir qiladi chunki ijtimoiy himoyaning kuchaytirilishi tufayli nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'proq imkoniyatlar yaratiladi. Ta'lim va tibbiyot sohalaridagi kafolatlar aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi va korrupsiya holatlari kamayishiga olib keladi. Bu amalga oshirilgan islohotlar faqatgina ijobiy jihatlarga ega hisoblanadi, chunki ular inson huquqlari himoyasi uchun yaratilgan. To'g'ri bu o'zgarish va qo'shimchalar dastlab qonunchilikda to'liq tatbiq qilinishida muammolar bo'lishi, jamiyat va davlat organlaring moslashish jarayoni biroz vaqt olishi mumkin, lekin bular kelajak uchun keng imkoniyatlar yaradi.

XULOSA

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya O'zbekistonning demokratik rivojlanish yo'lida tarixiy burilish nuqtasi bo'lib, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida tubdan yangilanishga xizmat qildi. Ushbu o'zgarishlar inson huquqlarini kengaytirish, davlat boshqaruvini takomillashtirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, fuqarolarning manfaatlari va ehtiyojlarini birinchi o'ringa qo'yadi. Yangi Konstitutsiya nafaqat bugungi kunning talablariga javob beradi, balki kelajak avlodlar uchun barqaror va adolatli davlat boshqaruv tizimini yaratish yo'lida mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bu hujjat xalq ishonchi va qo'llab-quvvatlashiga asoslangan holda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishining yangi bosqichini boshlaydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya amalga oshiriladigan islohotlarning asosiy yo'nalishlarini belgilab, O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashga ham zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Quchqorov A. Yangi Konstitutsiya-taraqqiyot qomusi// Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 2024, 2-son, 260-bet.
2. Mamadayupova V. Konstitutsiya baxtimiz qomusi// Eurasian journal of academic research, 2021, 1-son, 79-80-bet.
3. TDYU jamoasi, Konstitutsiyaviy huquq.-T.: TDYU nashriyoti, 2024. 61-64-bet.
4. Raxmatov N. Yangi tahrirdagi konstitutsiya- inson sha'ni, qadr-qimmati va huquqlarining mustahkam kafolati// Studying the progress of science and its shortcomings, 2024 171-180